

# TO'GARAK MASH'ULOTLARIDA O'QUVCHILARNING IJOKORLIK QOBLIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

*Umarov Rahim Tojiyevich<sup>1</sup>, Umarova Nurnisa Rahimovna<sup>2</sup>,  
Umarova Nafisa Rahimovna<sup>3</sup>*

*<sup>1</sup>A.Qodiriy nomidagi JDPU dotsenti, Jizzax sh., <sup>2</sup>X.Olimjon va Zulfiya nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi, Jizzax sh., <sup>3</sup>Navoiy shahridagi 16-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
e-mail:umarovr@jdpu.uz*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sinfdan tashqari ishlarning birituri bo'lgan to'garak mashg'ulotlarini tashkil qilish va mashg'ulotlarda o'quvchilarni ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasiga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** To'garak, sinfdan tashqari ishlar, o'quvchilarni ijodkorlik qobiliyatlari, metod, shakl, instruktaj (yo'riqnoma), izlanish, intilish.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается вопрос организации групповой деятельности, являющейся частью внеурочной деятельности, и развития творческих способностей учащихся в ходе деятельности.

**Ключевые слова:** кружок, внеурочная деятельность, творческие способности учащихся, метод, форма, обучение (руководство), поиск, стремление.

**Annotation:** This article focuses on the issue of organizing group activities, which are part of extracurricular activities, and developing students' creative abilities during the activities.

**Keywords:** Circle, extracurricular activities, students' creative abilities, method, form, instruction (guidance), search, aspiration.

O'quvchilarni bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilashda sinfdan tashqari ishlarning turlaridan biri bo'lgan to'garak mashg'ulotlari o'quvchilar hayotida muhim ahamiyatga ega. To'garak mashg'ulotlarida ularning ijodkorlik qobiliyatlari yanada rivojlanadi.

Ushbu maqolada sinfdan tashqari ishlarning bir turi bo'lgan to'garak mashg'ulotlarini tashkil qilish va mashg'ulotlarda o'quvchilarni ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi qaraladi.

Maktablarning ish tajribasida turli-tuman to'garaklar uchraydi. O'quv fanlari bilan bog'liqliq nuqtai nazaridan to'garaklarni uch guruhga fanga doir, fanlararo va fandan tashqari to'garaklarga ajratish mumkin.

Fanga doir to'garaklar deb, bevosita mehnat tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan to'garaklarga aytiladi. O'z mazmuniga ko'ra bu to'garaklar texnologiya fani darsida o'quvchilar bajargan ishning go'yo davomi, ammo bunda o'quvchilarning

faoliyati yanada murakkabroq, kengroq bo'ladi. Fanga doir to'garaklar aslo o'quvchilar avval bajargan ishni shunchaki takrorlarmasligi kerak.

Fanlararo to'garaklar ichida eng keng tarqalgani fizik-texnik, texnik ijodkorlik to'garaklar hisoblanadi. Bu to'garaklarda o'quvchilar faoliyatining mazmuni to'garakning o'z nomidan kelib chiqadi. Texnik-ijodkorlik to'garaklarda o'quvchilarning mehnat obyektlari, odatda, turli modellar bo'ladi. Bunda o'quvchilar texnologiya fanida o'rganiladigan muayyan qonuniyatlarni misollar bilan oydinlashtirishga muvaffaq bo'ladilar, bu esa fan asoslarini o'zlashtirishda yordam beradi. Ikkinchi tomondan esa o'quvchilar model konstruksiyasini loyihalaydi va yaratadi. Fizik-texnik to'garaklarga bir vaqtning o'zida fizika va texnologiya fani o'qituvchilari rahbarlik qiladilar.

Fanlardan tashqari to'garaklar hozirgi vaqtda sinfdan tashqari ishda kengroq tarqalgan. O'quvchilar faoliyatining mazmuniga ko'ra bu to'garaklar turli-tuman bo'lishi mumkin. Mazkur holda gap shunday predmetdan tashqari to'garaklar haqidagina boradiki, ularning ishlari uchun maktab ustaxonalaridan moddiy baza sifatida foydalaniladi, yoki o'quvchilar faoliyati texnologiya fani darslarida olingan bilim va malakalarga tayanadi.

Fandan tashqari to'garaklarga rahbarlik qilishga ko'pincha baza korxonalar xodimlari, ota-onalar taklif etiladi. O'qituvchi esa ularga metodik yordam ko'rsatadi.

To'garaklar ishining mazmuni dasturlarda belgilab beriladi. Bu dasturlarni xalq ta'limi qoshidagi metodik kabinetlar, shuningdek, yosh texniklar ishlab chiqadi. Dasturlar bir va ikki o'quv yiliga mo'ljallangan bo'ladi.

To'garak mashg'ulotlari, odatda, har haftada bir marta ikki soatdan o'tkaziladi. Biroq o'quvchilar orasida bu bilan qanoatlanmaydigan jonbozlar ham uchraydi. Ular bilan ko'proq mashg'ulot o'tkazish mumkin, lekin buning uchun sinf rahbari bilan kelishish kerak, chunki u har bir o'quvchining boshqa fanlarni qanday o'zlashtirishini yaxshi biladi.

Bir to'garakda 15 nafardan ortiq o'quvchi bo'lmasligi lozim, aks holda ularning xar biriga individual tarzda rahbarlik qilish qiyinlashadi. Ilg'or maktablarning ish tajribasi ko'rsatishicha, maktab ustaxonalariga asoslangan to'garak mashg'ulotining strukturasi kombinatsiyalangan (aralash) dars strukturasi yaqin turadi. Bunga sabab shuki, har qanday to'garak mashg'ulotida, odatda, qator didaktik masalalar hal etiladi. Muayyan mehnat obyektini tayyorlashni o'quvchilar to'garak mashg'ulotidan ko'zlangan asosiy maqsad deb bilishadi.

To'garak mashg'ulotlariga qandaydir maxsus metodlar xos emas. Ularda Texnologiya fanining oddiy metodlari qo'llaniladi. Biroq bu metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, kuzatuvlarning ko'rsatishicha, og'zaki metodlardan ko'pincha tushuntirish metodi qo'llaniladi, hikoya metodi esa

eng kam qo'llaniladi. Birinchi qarashda bu g'alatiroq, tuyulishi mumkin, ma'lumki, suhbat jarayonida boshqa og'zaki metodlarga qaraganda o'quvchilarning bilish faolligi ortadi. Biroq to'garak mashg'ulotlarida ta'lim metodlaridan foydalanishning o'ziga xosligi ham ana shunda. Ma'lum bo'lishicha, o'quvchilar ayniqsa dastlabki mashg'ulotlarda suhbatlar bo'lishini yoqtirishmas ekan, chunki suhbatlar ularga odatdagi darslardagi savol-javobni eslatar ekan.

Namoyish qilish metodlariga shu narsa xam xoski, V—VI-sinf o'quvchilariga ko'pincha ko'rsatma qo'llanmalar namoyish qilinadi, VIII—IX sinf o'quvchilariga esa grafik tasvirlar namoyish qilinadi. Ishga bunday yondashishda o'quvchilarning grafik jihatdan tayyorgarligi hisobga olinadi.

Instruktaj (yo'riqnoma) to'garak mashg'ulotlarida o'qitish metodlari ichida muhim o'rinni egallaydi. Bunda kirish, joriy va yakunlovchi instruktajlar: frontal, zveno, va individual instruktajlar; og'zaki, yozma, grafik instruktajlar qo'llanilishi mumkin. Boshqacha aytganda, to'garak mashg'ulotlarida texnologiya fani uchun xos bo'lgan instruktajning barcha turlari uchraydi.

To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilar ishini tashkil qilishning har xil shakllari (frontal, zveno, individual, mehnat taqsimoti bilan) qo'llaniladi.

O'quvchilar ishini tashkil qilishning qanday shakli tanlanishi to'garak mashg'ulotlarida alohida diqqatni jalb qiladigan mehnat obyektlariga ko'p jihatdan bog'liq. Bunga sabab shuki, sinfdan tashqari ish jarayonida bir vaqtning o'zida quyidagi ikki holni hisobga olishga to'g'ri keladi:

1) jamoa mehnati eng katta tarbiyalovchi imkoniyatlarga ega.

2) o'quvchilar o'z qiziqishlarini qanoatlantiradigan va o'z mustaqilligini eng to'liq ko'rsatishga imkon beradigan individual topshiriqlar bajarishga intilishadi.

To'garak mashg'ulotlaridagi o'quvchilarni yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatlari ham xuddi boshqa pedagogik faoliyatlar singari falsafaning dialektik va tarixiy materializm qonunlariga asoslangan o'zining maxsus yo'nalishlariga ega va bu yo'lishga xususan quyidagilar kiradi:

-ijodkorlikda izlanish, intilish, tekshirish uslublari ilg'or pedagoglar tajribasini o'rganish va umumlashtirish masalalari tahlili;

-ijodkorlik masalalarini echishning pedagogik asoslarini qiyosiy tahlil qilish;

-o'quvchilarning yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning obyektiv tendensiyalari va qonuniyatlarini aniqlash;

- aytilganlar asosida istiqbolli rejani belgilab olish va uni amalga oshirish.

Bu muhim masalalar to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni yaratuvchan ijodkorlik faoliyatga tayyorlash jarayonini ilmiy tashkil etish asosida hal etiladi va o'ziga xos ikki jihatga ega:

Birinchi jihati – yaratuvchan tavsifga ega bo‘lgan nazariy va amaliy muammoli masalalarni to‘garak rahbari tomonidan yoritilishi va o‘quvchilar tomonidan uzlashtirilishini nazarda tutadi.

Ikkinchi jihati-o‘quvchilarning rahbar tomonidan berilgan ishni hal qilishga oid bilimlardan unumli foydalanadigan ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishdir. Ammo bu aloqalarni amalga oshirish esa ularni ilmiy asosda, didaktik jihatdan puxta o‘ylab yondoshishni taqozo etadi. Bu yondoshishga: vazifani nazariy o‘rganish, kuzatish, maqsadni qo‘ya bilish, faraz qilish, farazdan kelib chiqib reja tuzish, tahlil qilish, umumlashtirish va amalda uni tayyorlash ko‘nikmalari kiradi.

Ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish deganda o‘quvchilarning berilgan ijodkorlik masalalarini yechishdagi amaliy vazifalarni bajarish bilan bog‘liq ketma-ketliklardan oqilona foydalanishga o‘rgatishni tushuniladi.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olganda bu vazifalarni bajarishning quyidagi ketma-ketligi maqsadga muvofiq bo‘lib, uni bajarish bosqichlariga:

1. Topshiriq (ishning maqsadiga qo‘yilgan talabni oydinlashtiradi);
2. Muammoni qo‘yish;
3. Taklif qilinayotgan g‘oya farazni asoslash. Uni tekshirib ko‘rish bo‘yicha taxminiy tajribalar o‘tkazish;
4. Taklif qilingan variantlarni muhokama qilish va eng muvofiq‘ini tanlash, uning prinsipial chizmasini ishlab chiqish;
5. Buyum, asboblarni tayyorlash;
6. Sinab ko‘rish va muhokamadan o‘tkazish;
7. Nuqsonlarni bartaraf qilish va tayyorlash;
8. Undan amalda foydalanishga tatbiq etish;
9. Hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirishlar kiradi.

Bu jarayon faoliyatida o‘quvchilar o‘z topshirig‘ini ishlab chiqish va bajarishda amaliy yangilik tavsifga ega bo‘lishiga alohida e‘tiborni qaratilishi muxim hisoblanadi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki o‘quvchilarning to‘garak mashg‘ulotlari bo‘yicha ijodkorligi ham boshqa har qanday fanlar faoliyati singari o‘z predmeti natijalariga ega, ya‘ni masalan, o‘quvchi u yoki bu to‘garakdagi tayyorlanadigan ijodiy ishiga oid yechimni ijobiy hal qilib, ma‘lum uy-ro‘zg‘or yoki o‘quv-laboratoriya jarayonidagi biron buyum, moslamani takomillashtirish natijasiga erishishi mumkin. Bu esa shubhasiz, o‘quvchilarning to‘garakdagi ijodkorlik bo‘yicha bajarilgan topshiriq natijalarining, ishlab chiqarish jarayoniga o‘xshashligini va uni muvofiq boshqarish tizimi bo‘lishi zarurligini taqozo etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, Kasb tanlashga yo'llash. Darslik T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014 yil, 449 bet.
2. Sharipov Sh.S., Abduraimov Sh.S., Zaripov L.R., Qodirov B.E. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. Darslik-T.: "Lesson Press" nashriyoti, 2022., 112b.
3. Bo'latov S.S. "O'zbek xalq amaliy bezak san'ati". O'quv qo'llanma. – T.: "Texnologiya", 1991y., 450b.
4. Umarov R. T. va boshq. "Texnik ijodkorlik va dizayn" fanidan laboratoriya–amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishga oid uslubiy ko'rsatma. Sangzor-2005, 44 b.